

ISSN:3060-4567 Modern education and development
AUDITORLAR TOMONIDAN JALB QILINGAN EKSPERT
ISHIDAN FOYDALANISH

T.Ubaydullayev (*Namangan muhandislik qurilish instituti, o‘qituvchi*)

A.Isomuxamedov (*Namangan muhandislik qurilish instituti, o‘qituvchi*)

Anotatsiya: *Ushbu maqolada auditorlik faoliyatini amalga oshirishda auditor tomonidan jalg qilinadigan ekspert ishidan foydalanish masalalari o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: Auditor, auditorlik xulosasi, auditor tomonidan jalg qilingan ekspert, ekspert xulosasi, audit xalqaro standartlari, moliyaviy hisobot.

Auditorlik tashkilotlari faoliyatining qonuniy-me’yoriy asoslari tarkibida auditorlik standartlari muhim o’rin tutib, u ushbu kasb bilan shug’ullanishning muayyan me’yorlarini belgilab beradi. Shu boisdan ham respublikamizda auditning milliy standartlarini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Shuningdek, auditorlik faoliyatini litsenziyalashning soddalashtirilgan va muddatsiz tizimi joriy etildi, bu auditorlik xizmatlari bozorining shakllanishiga va mahalliy auditorlik tashkilotlari auditorlik kompaniyalarining yirik xalqaro tarmoqlariga kirishini ta’minlashgaimkon yaratdi. Shu bilan birga, qator muammolar va kamchiliklar auditorlik faoliyatining yanada rivojlanishiga, boshqarishga oid qarorlarni qabul qilish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish uchun auditorlik xizmatlarining ahamiyatini oshirishga to‘sinqinlik qilmoqda.

Auditor bildirilgan auditorlik fikri uchun mutlaq mas’uldir va bu mas’uliyat auditor tomonidan jalg qilingan ekspert ishidan foydalanilgan holda ham pasaymaydi. Shunga qaramay, agar jalg qilingan ekspert ishidan foydalanayotgan auditor ushbu AXS talablarini bajargach, auditor tomonidan jalg qilingan mazkur ekspertning ishi auditor maqsadlariga mos keladi, degan xulosaga kelgan bo‘lsa, u ish natijalarini yoki ekspertning o‘z sohasidagi xulosalarini tegishli auditorlik dalillari sifatida qabul qilishi mumkin.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert – Buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa sohada kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo‘lgan, ishidan auditor etaricha tegishli auditorlik dalillarini olishning yordamchi vositasi sifatida foydalanadigan jismoniy shaxs yoki tashkilot. Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert yo auditor tomonidan jalb qilingan (auditorlik tashkiloti yoki tarmoq firmasining partnyori yoki xodimi, shu jumladan vaqtinchalik yollangan xodimi bo‘ladigan) ichki ekspert, yo auditor tomonidan jalb qilingan tashqi ekspert bo‘lishi mumkin.

Tadbirkorlik sub’ektining moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda tadbirkorlik sub’ekti ular ishlaridan yordam sifatida foydalanadigan buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa sohada kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo‘lgan jismoniy shaxs yoki tashkilot.

Agar etaricha tegishli auditorlik dalillarini olish uchun buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa biron-bir sohada kasbiy bilimlar va tajriba talab etilayotgan bo‘lsa, auditor auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanish zaruratini aniqlashi lozim.

620-son AXS talablariga muvofiq bajariladigan auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko‘lami vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur tartib-taomillar xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko‘lами belgilashda auditor ayrim, shu jumladan quyidagi masalalarni ko‘rib chiqishi lozim¹:

- Mazkur ekspertning ishi taalluqli bo‘lgan masalaning xususiyati;
- Mazkur ekspertning ishi taalluqli bo‘lgan masalada muhim buzib ko‘rsatishlar risklari;
- Audit nuqtai nazaridan mazkur ekspert ishining ahamiyati;
- Mazkur ekspert ilgari bajargan ish haqida auditorning bilimi va tajribasi;
- Auditorlik tashkilotida qabul qilingan sifat nazorati siyosati va tartibtaomillari ekspertning ishiga tatbiq etiladimi.

¹ Auditning Xalqaro Standartlari. 620-«Ekspert ishidan foydalanish»

Auditor auditor tomonidan jalb qilingan ekspert auditorning maqsadlari uchun zarur bo‘lgan kompetentlik, qobiliyatlar va xolislikka ega yoki ega emasligini baholashi lozim. Auditor tomonidan jalb qilingan tashqi ekspert bilan bog‘liq holda, xolislikni baholash mazkur ekspertning ob’ektivligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan manfaatlar va munosabatlar mavjudligi xususida rasmiy so‘rov yuborishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Auditor modifikatsiyalanmagan fikr ifodalangan auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishiga havola etishi mumkin emas, qonunchilik yoki me’yoriy hujjatlar shuni talab qilgan holler bundan mustasno. Agar bunday havola etish qonunchilik yoki me’yoriy hujjatlarda nazarda tutilgan bo‘lsa, auditor auditorlik hisoboti (xulosasi)da havola auditorning auditorlik fikrini bildirish uchun mas’uliyatini kamaytirmasligini ko‘rsatib o‘tishi lozim.

Agar auditor auditorlik hisoboti (xulosasi)da auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning ishiga havola etishni bunday havola auditorlik fikri modifikatsiyasini tushunish uchun o‘rinli bo‘lgani bois amalga oshirayotgan bo‘lsa, auditor auditorlik hisoboti (xulosasi)da bunday havola auditorning mazkur fikrni bildirish uchun mas’uliyatini kamaytirmasligini ko‘rsatib o‘tishi lozim.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishi auditorga quyidagi jihatlardan biri yoki bir nechtasida yordam uchun talab etilishi mumkin. Tadbirkorlik sub’ekti va uning muhiti, shu jumladan uning ichki nazorat tizimi haqida tasavvur hosil qilish. Muhim buzib ko‘rsatishlar risklarini aniqlash va baholash. Moliyaviy hisobot darajasida baholangan risklarga nisbatan umumiyl javob harakatlarini belgilash va amalga oshirish. Taqdimnomalar darajasida baholangan risklarga javoban bo‘lg‘usi auditorlik tartib-taomillarini ishlab chiqish va bajarish, shu jumladan nazoratlar testlarini o‘tkazish yoki mohiyati bo‘yicha tekshirish tartib-taomillarini bajarish. Moliyaviy hisobotlar bo‘yicha fikr hosil qilishda olingan auditorlik dalillarining yetarlicha tegishli xususiyatini baholash.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun tadbirkorlik sub’ekti rahbariyatiga buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa biron-bir sohada kasbiy

bilimlar va tajriba talab etilgan holda (masalan, bu ma'lum qiyinchiliklar tug'dirishi yoki tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati mazkur sohada kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo'lmasligi mumkin) muhim buzib ko'rsatishlar risklari oshishi mumkin. Agar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati zaruriy kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo'lmasa, ushbu risklarni ko'rib chiqishda tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanilishi mumkin. Tegishli nazorat vositalari, shu jumladan tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan jalb qilingan ekspert ishiga taalluqli nazorat vositalari ham (agar ular mavjud bo'lsa) muhim buzib ko'rsatishlar risklarini pasaytirishi mumkin.

Agar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa biron-bir sohada kasbiy bilimlar va tajribadan foydalanilayotgan bo'lsa, buxgalteriya hisobi va audit sohasida ishlash ko'nikmalariga ega bo'lган auditor mazkur moliyaviy hisobotlar auditini o'tkazish uchun zarur kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo'lmasligi mumkin. Kelishuv partnyori kelishuv jamoasi va auditor tomonidan jalb qilingan, kelishuv jamoasi tarkibiga kirmaydigan har qanday ekspertlar jamuljam holda audit kelishuvini bajarish uchun tegili kompetentlik va qobiliyatlarga ega ekanligiga ishonch hosil qilishi shart.² Shundan keyin auditor kelishuv xususiyati, uni bajarish muddatlarini va kelishuvni bajarish uchun zarur bo'lган resurslar ko'lmini aniqlashi lozim.³

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanish talab etiladimi, agar talab etilsa, qachon va qay darajada foydalanish zarur, degan masalalarning hal etilishi auditorga bu talablarni bajarishga yordam beradi. Audit o'tkazilishiga qarab yoki vaziyat o'zgargan taqdirda, auditordan auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanish to'g'risida ilgari qabul qilingan qarorlarni qayta ko'rish talab etilishi mumkin.

Shunga qaramay, buxgalteriya hisobi yoki auditdan boshqa tegishli sohada mutaxassis hisoblanmaydigan auditor mazkur soha haqida ekspertni jalb qilmasdan audit o'tkazish uchun etarli tasavvur hosil qilishga qodir bo'lishi

² Auditning Xalqaro Standartlari. 220- «Moliyaviy hisobotlar auditni nazorat qilish»

³ Auditning Xalqaro Standartlari. 300- «Moliyaviy hisobotlar auditini rejalashtirish»

mumkin. Bunday tasavvurni, masalan, quyidagilar yordamida hosil qilish mumkin:

- O‘z moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda bunday kasbiy bilimlar va tajriba talab etiladigan tadbirkorlik sub’ektlari auditini o‘tkazish tajribasi.

- Muayyan sohada ta’lim olish yoki kasbiy rivojlanish. Bu, masalan, o‘quv kurslarini yoki auditorning tegishli sohadagi masalalar bilan ishslash qobiliyatini yaxshilash maqsadida mazkur sohada kasbiy bilimlar va tajribaga ega bo‘lgan shaxslar bilan o‘tkaziladigan masalalar muhokamasini o‘z ichiga oladi. Bunday muhokama auditor tomonidan jalb qilingan ekspertning kelishuvni bajarish paytida yuzaga kelgan muayyan vaziyatlar to‘plami xususidagi maslahatlaridan farq qiladi, zero bunda mazkur ekspertga muayyan masala bo‘yicha olingan ma’lumotlarga asoslangan tavsiyalar berish uchun imkoniyat yaratadigan barcha tegishli faktlar taqdim etiladi.⁴

- Bunday kelishuvlarni bajargan auditorlar bilan masalalarni muhokama qilish. Biroq, boshqa hollarda auditor etarlicha tegishli auditorlik dalillarini olish uchun yordamchi vosita sifatida auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanishni zarur deb hisoblashi yoki bu haqda qaror qabul qilishi mumkin. Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishidan foydalanish to‘g‘risida qaror qabul qilishda ko‘rib chiqiladigan masalalar, masalan, quyidgilarni o‘z ichiga oladi:

- Tadbirkorlik sub’ekti rahbariyati moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda o‘zi jalb qilgan ekspert ishidan foydalangani yoki foydalanmagani to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish.

- Mazkur masalaning xususiyati va ahamiyati, shu jumladan uning murakkabligi darajasi.

- Mazkur masalada muhim buzib ko‘rsatishlar risklari.

- Aniqlangan risklarga javoban bajariladigan tartib-taomillarning kutilayotgan xususiyati, shu jumladan: auditorning bilimi va bunday masalalar

⁴ Auditning Xalqaro Standartlari. 220- «Moliyaviy hisobotlar auditni nazorat qilish»

borasida ekspertlar bilan ishlash tajribasi; shuningdek auditorlik dalillari muqobil manbalarining mavjudligi.

620-son AXSning talablarini bajarish uchun bajariladigan auditorlik tartib-taomillarining xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko‘lami vaziyatga bog‘liq bo‘ladi. Masalan, quyidagi omillar boshqa holda talab etilganidan kengroq yoki boshqa auditorlik tartib-taomillarini bajarishni talab qilishi mumkin:

- Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishi sub’ektiv va keng ko‘lamli mulohazalar chiqarishni nazarda tutadigan ahamiyatli masalaga tegishli.
- Auditor ilgari jalb qilingan ekspert ishidan foydalanmagan va auditor tomonidan jalb qilingan mazkur ekspertning kompetentligi, qobiliyatları va ob’ektivligi haqida hech qanday tasavvurga ega emas.
- Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ayrim masala yuzasidan tavsiyalar berish uchun maslahatlashish o‘rniga auditning ajralmas qismi hisoblanuvchi tartib-taomillarni bajaradi.
- Ekspert auditor tomonidan jalb qilingan tashqi ekspert hisoblanadi va, binobarin, uning ishiga firmada qabul qilingan sifatni nazorat qilish siyosati va bu boradagi tartib-taomillar tatbiq etilmaydi.

Auditor tomonidan jalb qilingan ichki ekspert auditorlik tashkilotining partnyori yoki xodimi, shu jumladan vaqtinchalik xodimi bo‘lishi mumkin va, binobarin, mazkur tashkilotning Sifatni nazoratining xalqaro standarti yoki u bilan teng darajada qattiq bo‘lgan milliy talablarga mos keladigan sifatni nazorat qilish siyosati va bu boradagi tartib-taomillariga rioya qilishi shart.

Muqobil ravishda, auditor tomonidan jalb qilingan ichki ekspert tarmoq firmasining partnyori yoki xodimi, shu jumladan vaqtinchalik xodimi bo‘lishi mumkin va mazkur tarmoq firmasi sifatni nazorat qilish bo‘yicha auditorlik tashkiloti bilan umumiy siyosat va tartibtaomillarga ega bo‘lishi mumkin.

Auditor tomonidan jalb qilingan tashqi ekspert kelishuv jamoasi a’zosi hisoblanmaydi va sifatni nazorat qilish siyosati va bu boradagi tartib-taomillarga rioya qilishga majbur emas. Biroq, ayrim yurisdiksyalarda qonunchilik yoki me’yoriy hujjatlar auditor tomonidan jalb qilingan tashqi ekspert kelishuv jamoasi a’zosi sifatida baholanishini talab qilishi mumkin va, binobarin, u tegishli axloqiy

talablarga, shu jumladan mustaqillikka tegishli bo‘lgan talablarga va mazkur qonunchilik yoki me’yoriy hujjatlarga muvofiq boshqa professional talablarga rioya qilishga majbur bo‘lishi mumkin.

Kelishuv jamoalari, agar auditorlik tashkiloti (firma) yoki boshqa tomonlar taqdim etgan axborot buning aksini talab qilmasa, auditorlik tashkiloti (firma)ning sifatni nazorat qilish tizimiga tayanishga haqli. Kelishuv jamoalari bunday tizimga qay darajada tayanishlari vaziyatga bog‘liq bo‘ladi va quyidagi masalalarga nisbatan auditorlik tartib-taomillari xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko‘lamiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

- Xodimlarni va ta’lim dasturlarini tanlab olish yo‘li bilan erishilgan kompetentlik darajasi va qobiliyatlar.

- Xolislik. Auditor tomonidan jalb qilingan ichki ekspertlar tegishli axloqiy talablarni, shu jumladan mustaqillikka qo‘yiladigan talablarni bajarishlari shart.

- Jalb qilingan ekspert ishining muvofiqligini auditor tomonidan baholash. Masalan, auditorlik tashkiloti (firma)ning ta’lim dasturlari auditor tomonidan jalb qilingan ichki ekspertlarga ularning kasbiy bilimlari va tajribasining audit o‘tkazish jarayoni bilan o‘zaro aloqasi haqida tegishli tasavvur hosil qilish uchun imkoniyat yaratishi mumkin. Auditorlik tashkiloti (firma)ning bunday ta’lim beruvchi va boshqa jarayonlaridan, masalan, auditor tomonidan jalb qilingan ichki ekspertlar ishining ko‘lamini belgilovchi protokollardan foydalanish auditor tomonidan jalb qilingan ichki ekspert ishining muvofiqligini baholash bo‘yicha auditorlik tartib-taomillari xususiyati, ularni bajarish muddatlari va ko‘lamiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

- Qonunchilik va me’yoriy hujjatlarning talablariga qat’iy rioya etilishini monitoring jarayonlari vositasida ta’minalash

- Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert bilan masalalarni kelishish.

Auditor tomonidan jalb qilingan ekspert ishining natijalariga bunday tayanish imkoniyati auditorning ushbu AXS talablarini bajarish uchun mas’uliyatini pasaytirmaydi

Auditor tomonidan jalg qilingan ekspertning kompetentligi, qobiliyatları va ob'ektivligi – bu auditor tomonidan jalg qilingan ekspertning ishi auditorning maqsadları bilan qay darajada mos kelishi to‘g‘risidagi masalaga ahamiyatlı ta’sir ko‘rsatadigan omillardir. Kompetentlik auditor tomonidan jalg qilingan ekspertning kasbiy bilimlari va tajribasi xususiyati va darajasini aks ettiradi. Qobiliyatlar auditor tomonidan jalg qilingan ekspertning kelishuv vaziyatlarida o‘z kompetentligini qo‘llash ko‘nikmasini aks ettiradi. Qobiliyatlarga ta’sir ko‘rsatadigan omillarga, masalan, geografik o‘rin, vaqt va resurslarning mavjudligi kiradi. Xolislik noxolislik, manfaatlar to‘qnashuvi singari omillar ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan ta’sirni yoki auditor tomonidan jalg qilingan ekspertning professional yoki amaliy mulohazasiga boshqa omillar ta’sirini aks ettiradi.

Auditor tomonidan jalg qilingan ekspertning kompetentligi, qibiliyatları va ob'ektivligiga doir ma'lumotlar ko‘p sonli manbalardan olinishi mumkin bo‘lib, ular orasida quyidagilar bor:

- Ekspertning oldingi ishi bilan bog‘liq shaxsiy tajriba.
- Ekspert bilan muhokama qilish.
- Ekspertning ishi bilan tanish bo‘lgan boshqa auditorlar yoki shaxslar bilan muhokama qilish.
- Ekspert ega bo‘lgan malakalar, uning kasbiy tashkilot yoki sohaviy uyushmaga a’zoligi, ekspertda faoliyat olib borish huquqini beradigan litsenziya mavjudligi yoki sirtda e’tirof etishning boshqa shakllari to‘g‘risida bilim.
- Ekspert tomonidan yozilgan kitoblar yoki uning e’lon qilingan ishlari.
- Auditorlik tashkiloti (firmasi)ning sifatni nazorat qilish borasidagi siyosati va tartib-taomillari.

Xolislikka tahdid solayotgan omillarning ahamiyatlilik darajasini baholash va ehtiyyot choralarini ko‘rish zarurligi to‘g‘risidagi masalani hal qilish auditor tomonidan jalg qilingan ekspertning roliga va audit o‘tkazish nuqtai nazaridan ekspert ishining muhimlik darajasiga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Ba’zan shunday vaziyatlar yuzaga kelishi mumkinki, bunda ehtiyyot choraları tahdidlarni maqbul darajagacha pasytira olmasligi mumkin, masalan,

agar auditor tomonidan jalg qilingan taklif etilayotgan ekspert audit qilinayotgan ma'lumotlarni tayyorlashda ahamiyatli rol o'ynagan jismoniy shaxs hisoblansa, ya'ni, agar auditor tomonidan jalg qilingan ekspert tadbirkorlik sub'ekti rahbariyati tomonidan jalg qilingan ekspert bo'lsa.

Auditor va auditor tomonidan jalg qilingan ekspertning tegishli vazifalari va majburiyatlarini kelishish, masalan, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Auditor yoki auditor tomonidan jalg qilingan ekspert boshlang'ich ma'lumotlarni mufassal testlashni amalga oshirishi yoki amalga oshirmasligi to'g'risidagi masala.

- Auditor tomonidan jalg qilingan ekspert ishining natijalarini yoki mazkur ekspert chiqargan xulosalarni tadbirkorlik sub'ekti va boshqa tomonlar bilan muhokama qilishga auditorning roziligi va ushbu ekspert ishi natijalarining tafsilotlari yoki u chiqargan xulosalardan zarur holda auditorlik hisoboti (xulosasi)da modifikatsiyalangan fikrni ifodalash uchun asos sifatida foydalanish.

- Auditor tomonidan jalg qilingan ekspertni auditor mazkur ekspertning ishi xususida chiqargan xulosalar to'g'risida xabar qilish haqidagi har qanday ahslashuvi

Auditor va auditor tomonidan jalg qilingan ekspertning tegishli vazifalari va majburiyatlarini kelishish, masalan, bir-birining ish hujjatlari bilan tanishish va ularni saqlash shartlarini kelishishni ham o'z ichiga oladi. Agar auditor tomonidan jalg qilingan ekspert kelishuv jamoasi tarkibiga kirsa, mazkur ekspertning ish hujjatlari auditorlik hujjatlarining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Agar buning aksi to'g'risida biron-bir ahslashuv mavjud bo'lmasa, auditor tomonidan jalg qilingan tashqi ekspertlarning ish hujjatlari ularning o'ziga tegishli bo'ladi va auditorlik hujjatlarining tarkibiy qismi hisoblanmaydi.

Respublikamizda auditorlik faoliyatini tashkil etish va o'tkazish uslubiyati auditorlik faoliyatining xalqaro amaliyoti va tajribasiga asoslanadi. Ammo auditni samarali tashkil etishda faqatgina audit uslubiyati emas, balki auditning huquqiy asoslari ham juda muhim rol o'ynaydi. Respublikamizda auditorlik faoliyatini meyoriy tartibga solish asoslari takomillashib bormoqda. Yakunda

xulosa qilib aytish mumkinki, standartlar asosida auditorlar boshqa auditorlar ishidan foydalanish sifat nuqtayi nazaridan baholanadi.

Bu auditorlik faoliyatining kelgusi davrlarda puxta va oson bajarilishiga zamin yaratadi. Odatda, guruh auditorlari tarkibiga kirishi mumkin bo'lgan tarkibiy auditorlarning yordamiga muhtoj bo'ladi va ular turli mamlakatlar va turli firmalardan bo'lishi mumkin. Erta va puxta rejalshtirish, har tomonlama guruh va tarkibiy auditorlar o'rtasidagi aloqa va samarali loyihani boshqarish hamda aniq va ishonchli hujjatlarni to'plash juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonuni (yangi tahriri). 2021 yil 25 fevral. O'RQ-677сон.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldag'i qarori «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611 son Qarori. <http://lex.uz>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 sentyabrdagi “O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3946-son Qarori. <http://lex.uz>
4. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli Farmoni.
5. Tuychiyev A., Kuziyev I., Avlokulov A., Sherimbetov I., Avazov I. Audit. Darslik-T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019 y. – 530 b.
6. Кўзиев И., Туйчиев А., Хожиев М., Якубов М. Внутренний аудит. “ИҚТИСОД-МОЛИЯ”, 2019 г. – 421 стр.”
7. Lubis, S. N., Menglikulov, B., Shichiyakh, R., Farrux, Q., Ugli, B. O., Karimbaeva, T. M., ... & Jasur, S. (2024). Temporal and spatial dynamics of bovine spongiform encephalopathy prevalence in Akmola Province, Kazakhstan: Implications for disease management and control. *Caspian Journal of Environmental Sciences*, 22(2), 431-442.

8. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIYAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.
9. Abdulazizovich, K. U. (2022). Improving Methodological Approaches to Financial Asset Accounting. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(4), 56-62.
10. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG'ÖZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.
11. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. *Dear Academicians & Research Scholars*, 55.
12. Abdulazizovich, K. U. B. (2023). Improvement Of Information About Accounts Receivable In Current Assets In The Balance Sheet Based On International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2849-2859.
13. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. *Tashkent" economics-finance"—2013*.
14. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071*, 12(11), 38-47.
15. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАХЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАХЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.
16. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. *Экономика и социум*, (1 (68)), 102-105.
17. Abdulazizovich, X. U. B. Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya. Toshkent—2023*.

18. Xolmirzayev, U. B., & Ergashev, I. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 3(5), 109-115.
19. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. *Экономика и социум*, (6-2 (85)), 441-446.
20. Xolmirzayev, U. B., & Hakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 10, 96-98.
21. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(5), 17-21.
22. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(7).
23. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL ENTERPRISES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(1), 197-206.
24. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 755-766.
25. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. *Экономика и социум*, (5-2 (92)), 767-779.

26. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. *Мировая наука*, (1 (22)), 299-302.
27. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In *Conference Zone* (pp. 277-281).
28. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). Improving Cash Accounting And Analysis On The Basis Of International Experiences. *International Finance and Accounting*, 2020(1), 18.
29. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. *International Finance and Accounting*, 100.
30. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debtor debt analysis. *Мировая наука*, (1 (34)), 100-105.
31. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. *Интернаука*, (21-5), 14-16.
32. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. *Вопросы экономики и управления*, (5), 182-184.
33. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o'g'li, J. E. (2021). Positive aspects of the cash method in small businesses in a pandemic environment. *American Journal of Economics and Business Management*, 4(3), 1-8.
34. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). Some Issues of Improving Securities Accounting. In *Conference Zone* (pp. 129-132).
35. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &*

36. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум*, (2 (45)), 34-36.
37. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 2107-2114.
38. Abdullaevich, A. O., & Abdulazizovich, K. U. B. (2023). The Importance of Infrastructure in Facilitating the Business Environment. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10(2S), 3695-3702.
39. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 203-209.
40. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. *Interpretation and researches*, 1(3), 42-50.
41. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. *Questions of Economics and Management*, 5(7), 6.
42. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVIY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQILISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. *Educational research in universal sciences*, 2(3), 424-432.
43. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARDA DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.

44. O'g'li, J. E. S., & Abdulazizovich, X. U. B. (2019). Profits of housekeeping and its development. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 8(4), 419-423.
45. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. *Экономика и социум*, (1 (68)), 48-52.
46. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). The role of accounting in small business management. *Интернаука*, (21-5), 20-22.
47. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. *Интернаука*, (21-5), 9-11.
48. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. *TRANS Asian Research Journals*, 8(4).
49. Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. *Интернаука*, (21-5), 17-19.